O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
JAMOAT XAVFSIZLIGI
UNIVERSITETI

ZAMONAVIY ILM-FAN, TA‘LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASINING DOLZARB MASALALARI TALABA YOSHLAR NIGOHIDA

III RESPUBLIKA AN'ANAVIY TALABALAR ILMIY-AMALIY ANJUMANI MATERIALLARI

TO‘PLAMI

2026-yil 25-26-mart



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
JAMOAT XAVFSIZLIGI UNIVERSITETI

ZAMONAVIY ILM-FAN, TA’LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASINING DOLZARB MASALALARI TALABA YOSHLAR NIGOHIDA

III respublika an’anaviy talabalar ilmiy-amaliy anjumani materiallari to‘plami

5-sho‘ba: Shaxs taraqqiyotida psixologik fanlar, ta’lim va amaliyot integratsiyasining zamonaviy masalalari.

2026-yil 25-26-mart

TOSHKENT

“Zamonaviy ilm-fan, ta’lim va amaliyot integratsiyasining dolzarb masalalari talaba yoshlar nigohida” III respublika an’anaviy talabalar ilmiy-amaliy anjumani materiallari to‘plami. 5-sho‘ba: Shaxs taraqqiyotida psixologik fanlar, ta’lim va amaliyot integratsiyasining zamonaviy masalalari. Toshkent: O‘RJXU, 2026-yil 366 b.

Ushbu to‘plam “Zamonaviy ilm-fan, ta’lim va amaliyot integratsiyasining dolzarb masalalari talaba yoshlar nigohida” mavzusidagi konferensiyaga respublika talabalaridan kelgan maqolalar asosida tayyorlangan bo‘lib, unda talabalarning ilm-fan sohasidagi dolzarb mavzular yuzasidan maqolalari, taklif va tashabbuslari o‘rin olgan.

Bu galgi anjuman 6 ta sho‘ba bo‘yicha tashkil etilib, anjumanga respublikamizning 90 ga yaqin OTMlaridan 500ga yaqin maqolalar kelib tushgan.

Anjuman yoshlarni ilmiy-tadqiqot faoliyatiga faol jalb etish maqsadida o‘tkazilib, unda ayniqsa, huquqshunoslik, iqtisodiyot va psixologiya sohasidagi ilmiy va innovatsion tadqiqotlarga ustuvorlik berilgan.

Anjuman materiallari tadiqotchilar va boshqa qiziquvchilar uchun mo‘ljallangan.

Mas’ul muharrir: **Xaknazarov Xudoyberdi Dilmurodovich**
tarix fanlari doktori (DSc), dotsent

Tahrir hay’ati: **Choriyev Faxriddin Abdug‘apporovich,**
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Qurbonov Baxromjon Baxtiyor o‘g‘li
Jamoat xavfsizligi universiteti magistranti

© O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti, 2026

UNESCO ma’lumotlariga ko‘ra, ayollar ilmiy faoliyatda 33,3 % ulushga ega bo‘lsa ham, milliy fan akademiyalarining atigi 12 % a’zolari ayollar hisoblanadi, bu dunyo bo‘yicha gender notengligidan dalolat beradi. **[5]** Dunyo bo‘ylab ko‘plab ayol olimlar o‘z sohalarida muhim ilmiy natijalarga erishgan. Masalan, argentinalik psixolog va gender tadqiqotchisi **Gloria Bonder** gender, jamiyat va siyosat o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rganib, xotin-qizlar uchun ta’lim va ilmiy faoliyatda teng imkoniyatlar yaratishga qaratilgan ilmiy ishlari bilan tanilgan. **[6]** Shuningdek, mashhur feminist psixolog **Sandra Schwartz Tangri** ayollar hayoti, kasbiy tanlovlari va ijtimoiy rollari bo‘yicha olib borgan tadqiqotlari orqali gender stereotiplarini ilmiy asosda tahlil qilgan. **[7]**

Xulosa:

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ayol olimalar zamonaviy pedagogika va gumanitar fanlar rivojida muhim vazifa bajaradi. Ularning ilmiy faoliyati jamiyatdagi gender tenglikni mustahkamlash, ta’lim jarayonlarini takomillashtirish va ijtimoiy munosabatlarni yaxshilashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ayol olimalarning ijtimoiy-psixologik strategiyalari jamiyatda barqaror munosabatlar yaratish, gender stereotiplari va psixologik to‘siqlarni kamaytirishga yordam beradi.O‘zbekiston tajribasi shuni ko‘rsatadiki, ayol olimalarning ilmiy salohiyatini qo‘llab-quvvatlash va iqtidorli xotin-qizlarni aniqlash bo‘yicha chora-tadbirlar, shu jumladan maxsus dasturlar va platformalar, ularning faoliyatini kengaytirishga xizmat qiladi.Umuman olganda, ayol olimalarning faoliyati nafaqat pedagogika va gumanitar fanlar rivojida, balki jamiyatning madaniy, ijtimoiy va psixologik barqarorligini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega. Shu sababli ularning ilmiy izlanishlarini rag‘batlantirish, motivatsiya va institutsional qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini yaratish dolzarb va muhim vazifa hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. wosjournals.com// pedagogical, psychological, and philosophical analysis of enhancing social activity of women and girls
2. file:///C:/Users/user/Downloads/ZDTF706%20(1).pdf “Xotin-qizlarni ilmiy faoliyatga jalb qilishda yangi O`zbekiston strategiyasi”
3. https://arxiv.org/abs/ Systematic comparison of gender inequality in scientific rankings across disciplines
4. https://www.nature.com/ The paradox of participation: gender, autonomy, and suppression in academic science
5. UNESCO. UNESCO Science Report: The Race Against Time for Smarter Development. Paris: UNESCO Publishing, 2021.
6. Bonder, G. Gender, Knowledge and Development. UNESCO Gender Studies Series.

7. Tangri, s. S. Women and careers: psychological perspectives. Journal of social issues.

INKLYUZIV TA’LIMDA ONA TILI FANIDAN IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALAR UCHUN AKKOMODATSION YONDASHUV

Qudratxo’jayeva Dilfuzaxon Alisherovna
Oriental Universiteti
Maxsus pedagoika yo’nalishi talabasi
Ilmiy rahbar: ***Xikmatova Shohida Xikmatovna***

Annotatsiya. Mazkur maqolada inklyuziv ta’lim tizimida alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bo‘lgan o‘quvchilarni ona tili faniga o‘qitishda akkomodatsion yondashuvning ahamiyati tahlil qilinadi. Inklyuziv ta’limning mazmuni, huquqiy asoslari hamda pedagogik tamoyillari yoritilgan. Shuningdek, turli rivojlanish nuqsonlariga ega bo‘lgan o‘quvchilar bilan ishlashda ta’lim jarayonini moslashtirishning samarali usullari ko‘rsatib berilgan. Maqolada ko‘rish, eshitish, nutq, aqliy rivojlanish hamda tayanch-harakat tizimi nuqsonlari mavjud bo‘lgan o‘quvchilar uchun akkomodatsion yondashuv asosida tashkil etiladigan ona tili darslarining pedagogik imkoniyatlari ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: inklyuziv ta’lim, akkomodatsiya, modifikatsiya, maxsus pedagogika, ona tili ta’limi, pedagogik moslashtirish, alohida ta’lim ehtiyojlari.

Abstract

This article analyzes the importance of the accommodation approach in teaching the native language to students with special educational needs in an inclusive education system. The essence, legal basis, and pedagogical principles of inclusive education are discussed. The article also describes effective strategies for adapting the educational process for students with various developmental disabilities. Special attention is given to accommodation strategies in teaching students with visual, hearing, speech, intellectual, and motor impairments in native language classes.

Keywords: inclusive education, accommodation, modification, special pedagogy, native language teaching, educational adaptation, special educational needs.

Kirish

So‘nggi yillarda ta’lim tizimida barcha bolalar uchun teng imkoniyatlar yaratish masalasi muhim ijtimoiy vazifalardan biri sifatida qaralmoqda. Shu nuqtai nazardan inklyuziv ta’lim g‘oyasi jahon ta’lim tizimida keng qo‘llanilayotgan pedagogik yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Inklyuziv ta’limning asosiy mazmuni – turli

rivojlanish xususiyatlariga ega bo‘lgan bolalarni umumiy ta’lim muhitiga jalb etish va ularning sifatli ta’lim olish huquqini ta’minlashdan iboratdir.

Inklyuziv ta’lim konsepsiyasi “Bola huquqlari to‘g‘risida”gi Konvensiya hamda xalqaro pedagogik tamoyillarga asoslanadi. Ushbu konsepsiyaga ko‘ra, har bir bola o‘zining individual imkoniyatlari va ehtiyojlariga mos ta’lim olish huquqiga ega.

O‘zbekiston Respublikasida ham inklyuziv ta’limni rivojlantirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Xususan, Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12-oktyabrdagi 638-son qarori bilan umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlarida alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar uchun inklyuziv ta’limni tashkil etish tartibi belgilangan.

Mazkur qarorga muvofiq, inklyuziv sinflarda sog‘lom o‘quvchilar bilan bir qatorda rivojlanishida muammolari mavjud bo‘lgan o‘quvchilar ham birgalikda ta’lim oladi. Bunda pedagoglar har bir o‘quvchining individual imkoniyatlarini hisobga olgan holda ta’lim jarayonini tashkil etishlari zarur.

Inklyuziv ta’limning nazariy asoslari

Pedagogik adabiyotlarda inklyuziv ta’lim “ta’lim jarayonini barcha bolalar uchun ochiq va moslashtirilgan shaklda tashkil etish tizimi” sifatida talqin qilinadi. T. Booth va M. Ainscow ta’kidlaganidek, inklyuziv ta’lim – bu faqat alohida ehtiyojli bolalarni maktabga joylashtirish emas, balki butun ta’lim tizimini o‘quvchilarning turli ehtiyojlariga moslashtirish jarayonidir.

Ilmiy tadqiqotlarda inklyuziv ta’limning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat ekanligi qayd etiladi:

- teng huquqlilik;
- individuallashtirilgan ta’lim;
- ijtimoiy integratsiya;
- pedagogik qo‘llab-quvvatlash;
- ta’lim jarayonini moslashtirish.

Mazkur tamoyillar inklyuziv ta’lim muhitida har bir o‘quvchining rivojlanishiga qulay sharoit yaratishni taqozo etadi.

Inklyuziv ta’lim - aqliy va jismoniy rivojlanishida muammolari bo’lgan bolalarni umumta’lim jarayoniga olib kirish ma’nosida qo’llanilib,integratsiyadan farqli ravishda “Bola huquqlari to’g’risida”gi Konvensiyaga muvofiq tarzda barcha bolalarning ta’lim olishdagi huquqlarini ta’minlashga qaratilgan. Barcha bolalarning birgalikda ta’limlari ularning har biriga individuallashtirilgan ta’lim asosida amalga oshiriladi. Ya’ni u yoki bu jihatdan rivojlanishida muammolari bo’lgan bolalar barcha sog’lom bolalar bilan birgalikda ta’lim olsalarda ular o’z imkoniyatlari doirasidagi bilim,ko’nikma va malaka bilan qurollanadilar. Barcha bolalarning hamkorlikdagi ta’lim ikki tomonlama ijobiy xislatlarga ega. Agar, ushbu jarayon orqali alohida e’tiborga muhtoj bo’lgan bolalarning o’z oilalari ,mahalladoshlari bilan birga o’sib

ulg’ayishlari ta’minlansa,sog’lom bolalarning rivojlanishlarida muammolari bo’lgan bolalarning imkoniyatlarini ko’rib, ular ham nuqsonli emas, balki, o’zgacha rivojlanishga ega bo’lgan bolalar ekanligini anglashlari sodir bo’ladi. Shu sababli ham bunday ta’limning g’oyasi - “inklyuziv maktablaridan - inklyuziv jamiyat sari” shiori asosida qurilgan.

Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12-oktyabrdagi 638-son qarori bilan tasdiqlangan ”Umumiy o’rta ta’lim tashkilotlarida jismoniy, aqliy sensor(sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo’lgan bolalar (alohida ta’lim ehtiyojlari bo’lgan bolalar) uchun inklyuziv ta’limni tashkil etish belgilab berilgan. Shuningdek, inklyuziv ta’lim sinfi - maktabdagi alohida ta’lim ehtiyojlari bo’lgan bolalarning boshqa (sog’lom) bolalar bilan teng huquqli va birgalikdagi ta’lim olishlari shaklida tashkil etilgan sinf ekanligini e’tirof etilgan.

Mazkur nizom o’quvchilarni inklyuziv ta’lim sinflariga va boshlang’ich tayanch korreksion sinflariga qabul qilish tartibi ko’rsatilgan bo’lib, o’quvchilarni inklyuziv ta’lim sinflari va boshlang’ich tayanch korreksion sinflarga qabul qilish hamda chiqarish hududiy xalq ta’limi boshqarmasi huzurida tashkil etilgan tibbiy-pedagogik-psixologik komissiya xulosasiga ko’ra ota-onalar yoki ularning o’rnini bosuvchi shaxslar roziligi bilan amalga oshiriladi. Inklyuziv ta’lim sinflarida jami o’quvchilar soni 25-30 nafardan oshmasligi kerak. Ushbu sinflarda umumiy o’rta ta’lim dasturlari bo’yicha ommaviy tarzda o’qiyotgan o’quvchilar bilan birga maxsus(korreksion) dasturlar asosida o’qiyotgan alohida ta’lim ehtiyojlari bo’lgan o’quvchilar soni 3-4 nafardan oshmasligi lozim. Inklyuziv ta’lim sinflari va boshlang’ich tayanch korreksion sinflariga faqat bir xil tibbiy tashxisli o’quvchilar qabul qilinadi. Maktablarda inklyuziv ta’lim sinflari soni parallel sinflarida ikkitadan ortiq tashkil etilmaydi.

Umumta’lim maktablarida imkoniyati cheklangan bolalar uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, pedagog kadrlarni tayyorlash va o’quv jarayonini moslashtirish bo’yicha izchil ishlar amalga oshirilmoqda. Bu jarayonda ona tili fani alohida ahamiyat kasb etadi, chunki ona tili orqali o’quvchi o’qish, yozish,tinglash va gapirish ko’nikmalarini egallaydi. Savodxonlik darajasi boshqa fanlarni o’zlashtirishga ham bevosita ta’sir qiladi. Shuning uchun imkoniyati cheklangan bolalar uchun ona tili darslarini to’g’ri moslashtirish va o’qitishda akkomodatsion yondashuvni tashkil etish umumiy ta’lim hamda inklyuziv ta’lim samaradorligini belgilovchi muhim omillardan biridir.

Akkomodatsion yondashuv - inklyuziv ta’limning amaliy mexanizmlaridan biridir.

Akkomodatsiya deganda o’quv dasturi mazmunini o’zgartirmasdan turib,o’qitish usuli,vositasi,topshiriqlarni bajarish shakli yoki baholash tartibini o’quvchining individual ehtiyojlariga moslashtirish tushuniladi. Masalan, agar sinfda

barcha o’quvchilar bir xil mavzuni o’rganayotgan bo’lsa, imkoniyat cheklangan o’quvchi ham aynan shu mavzuni o’zlashtiradi, biroq ehtiyojiga qarab unga qo’shimcha vaqt berilishi, audio yoki vizual shaklda taqdim etilishi mumkin va bu akkomodatsiyadir.

Ona tili ta’limining inklyuziv ta’limdagi o‘rni

Umumta’lim maktablarida o‘qitiladigan fanlar ichida ona tili alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki aynan ushbu fan orqali o‘quvchilarda o‘qish, yozish, tinglash va nutqiy muloqot ko‘nikmalari shakllanadi.

Pedagog olimlarning ta’kidlashicha, savodxonlik darajasi o‘quvchilarning boshqa fanlarni o‘zlashtirishiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli ona tili darslarini samarali tashkil etish inklyuziv ta’lim jarayonining muhim shartlaridan biridir.

Yuqorida aytib o’tganimdek ona tili darslarida o’quvchi o’qish, yozish, tinglash, gapirish, grammatik tahlil qilish va matn tuzish ko’nikmalarini egallasa, imkoniyati cheklangan o’quvchilarda bu jarayon ayrim obyektiv sabablarga ko’ra sekinroq yoki murakkabroq kechishi mumkin. Shu sababli pedagogik darsni ilmiy asoslangan usullar bilan moslashtirish lozim

Imkoniyati cheklangan o‘quvchilar uchun ona tili darslarini tashkil etishda pedagoglar an’anaviy o‘qitish metodlari bilan bir qatorda maxsus pedagogik yondashuvlardan ham foydalanishlari zarur. Shunday yondashuvlardan biri akkomodatsion yondashuv hisoblanadi.

Akkomodatsion yondashuvning pedagogik mohiyati

Akkomodatsiya tushunchasi pedagogikada o‘quv jarayonini o‘quvchining individual ehtiyojlariga moslashtirishni anglatadi. Bunda o‘quv dasturining mazmuni o‘zgarmaydi, biroq o‘qitish usullari, topshiriqlarni bajarish shakli yoki baholash tartibi moslashtiriladi.

Masalan, barcha o‘quvchilar bir xil mavzuni o‘rganayotgan bo‘lsa, imkoniyati cheklangan o‘quvchi ham aynan shu mavzuni o‘zlashtiradi. Biroq unga qo‘shimcha vaqt berilishi, audio yoki vizual materiallardan foydalanish imkoniyati yaratilishi mumkin.

Agar o‘quv dasturining mazmuni soddalashtirilsa yoki qisqartirilsa, bu modifikatsiya deb ataladi. Shu jihatdan akkomodatsiya va modifikatsiya tushunchalarini bir-biridan farqlash muhimdir.

Turli nuqson turlarida akkomodatsion yondashuv:

Ko‘rishida nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilar

Ko‘rish qobiliyati cheklangan o‘quvchilar axborotni qabul qilish jarayonida ma’lum qiyinchiliklarga duch kelishlari mumkin. Shu sababli dars jarayonida quyidagi pedagogik vositalardan foydalanish tavsiya etiladi:

- katta shriftli o‘quv materiallari;
- kontrast ranglardan foydalanish;
- Brayl yozuvi;
- audio materiallar.

Bu vositalar o‘quvchining axborotni qabul qilish jarayonini yengillashtiradi.

Eshitishida nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilar

Eshitish qobiliyati cheklangan o‘quvchilar og‘zaki nutqni to‘liq qabul qilolmasligi mumkin. Shu sababli quyidagi metodlardan foydalanish muhim:

- yozma ko‘rsatmalar berish;
- vizual diagrammalar va sxemalar;
- subtitrli videolar;
- pedagogning aniq artikulyatsiyasi;
- imo-ishora tarjimoni.

Aqliy rivojlanishida qiyinchiligi bo‘lgan o‘quvchilar

Bunday o‘quvchilar grammatik qoidalarni o‘zlashtirishda ko‘proq vaqt talab qilishi mumkin. Shu sababli:

- bosqichma-bosqich o‘qitish;
- sodda tilda tushuntirish;
- ko‘p takrorlash;
- amaliy mashqlar orqali mustahkamlash usullari qo‘llaniladi.

Nutqida nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilar

Nutqida nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilar og‘zaki javob berishda qiynalishi mumkin. Shu sababli:

- yozma javoblarga ruxsat berish;
- qisqa javob variantlaridan foydalanish;
- logoped bilan hamkorlik qilish muhim hisoblanadi.

Tayanch-harakat tizimi nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilar

Bunday o‘quvchilar uchun:

- yozma topshiriqlarni bajarish uchun qo‘shimcha vaqt berish;
- kompyuter texnologiyalaridan foydalanish;
- jismoniy qulay muhit yaratish tavsiya etiladi.

Xulosa

Inklyuziv ta’lim tizimi zamonaviy ta’limning muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, barcha bolalarning teng ta’lim olish huquqini ta’minlashga xizmat qiladi. Ona tili fanini o‘qitishda akkomodatsion yondashuvdan foydalanish imkoniyati cheklangan o‘quvchilarning ta’lim jarayonida faol ishtirok etishiga yordam beradi.

Ta’lim jarayonini moslashtirish orqali o‘quvchilarning individual imkoniyatlari kengroq namoyon bo‘ladi va ularning ijtimoiy moslashuvi osonlashadi. Shu sababli inklyuziv ta’limda akkomodatsion yondashuv pedagogik faoliyatning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Bandura O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12-oktyabrdagi 638-son qarori.
3. Nazarova D.A. Modern Approaches in the Process of Training Educators for A Special and Inclusive Education System European Scholar Journal 3 (10), 91-92
4. Booth T., Ainscow M. Index for Inclusion. – Bristol, 2011.
5. Florian L. Inclusive Pedagogy. – London, 2014.
6. Xaitov A. Maxsus pedagogika asoslari. – Toshkent.
7. Mamedova L. Inklyuziv ta’lim metodikasi. – Toshkent.
8. UNESCO. Inclusive Education Guidelines. – Paris, 2017.

INNOVATSION TA’LIMDA PSIXOLOGLARNING AHAMIYATI

Qalandarova Gulqand Mamurovna

O‘zbekiston davlat Jahon tillari universiteti

Pedagogika psixologiya kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya. : Innovatsion ta’lim muhitida psixologlarning ahamiyati hozirgi kunda har qachongidan ham dolzarb hisoblanadi. Psixologlar o‘quvchilar va o‘qituvchilar o‘rtasidagi psixologik munosabatlarni, shuningdek, o‘quv muhitini yaratishda katta ahamiyatga ega. Ular ta’lim jarayonida nafaqat bilim va ko‘nikmalarni o‘rgatish, balki o‘quvchilarning ruhiy holatini, motivatsiyasini va o‘z-o‘zini anglashini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Mazkur maqolada innovatsion ta’limda psixologlarning o‘rni va ahamiyati tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: innovatsion ta’lim, psixologiya, tanqidiy fikrlash, individual xususiyatlar, pedagogik mahorat, bilim va ko‘nikmalar.